

“ISHQILA... BO’LMISHAM SOHIB KAMOL” Z.M.BOBUR G’AZALLARIDA FATIY OBRAZI

Eraliyeva Sarvinoz Oybek qizi

Toshkent viloyati Bo’stonliq tumanidagi umumiy o’rta ta’lim maktabining ona tili va
adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda Z.M.Bobur g’azallarida fatiy obrazni xususida fikr
yuritiladi. G’azallardagi futuvvat g’oyasi qay tarzda ochib berilgani borasida shaxsiy
qarashlar ifodalananadi. Futuvvatning 3 asosi: saxovat, safo va vafoning Bobur hazratlari
lirikasida aks etilishi yoritib beriladi.

Kalit so’zlar: Fatiy obrazni, futuvvat, saxovat, safo, vafo, ishq, oshiq, yor obrazlari, komillikka
erishgan lirik qahramon.

Saxovat, safo, vafo... “Ishq ila sohib kamol” bo’lgan ahli ishqning maslagiga aylangan bu
tushunchalar mumtoz adabiyot an’alarida alohida qadr topgan. A.Navoiy: “Futuvvat
barcha qilmakdir, demak yo’q” deydi. Ya’ni Ollohga chin dildan oshiq bo’lganlar fikrida
futuvvat g’oyasi birlamchi bo’ladi.

Husayn Voiz Koshifiy futuvvatning uch asosi bor ekanligini ta’kidlaydi. Ulardan biri saxovat
-- “bor narsasini hech kimdan qizg’anmaslik”, ikkinchisi safo -- “qalbini kibr-u havo, gina-
kudurat, qasd-g’azabdan pokiza, pok tutmoqlik”, uchinchisi vafo -- “hamma vaqt xalq
xizmatida bo’lish”dir. (Qo’shtirnoq ichidagi fikrlar N.Jabborovning “Maoniy ahlining
sohibqironi” monografiyasidan aynan keltirilgan). Bu uch maslakka erishgan Yaratganga
oshiqlar fatiy maqomiga sazovor bo’ladi. Bobur hazratlarining g’azallarida esa yor hajrida
yonib-kuysa-da komillik yo’lida ahdidan kechmagan lirik qahramon, Haq yo’lidan
qaytmaydigan oshiq obraziga ko’p bora duch kelamiz.

“Futuvvatdan murod insonning kamolga erishmog’i va Haq taologa qurbat hosil qilmog’idir”,
-- deb yozadi Nurboy Jabborov. Fatiy esa ong-u shuuri ana shu futuvvat g’oyalari bilan suv
ichgan, qalbida esa buyuk zotning go’zal ne’matlariga buyuk muhabbat bilan javob qaytara
oladigan, jamiki illatlarga begona insondir. Bunday oliymaqom shaxslarning mumtoz
she’riyatga olib kirilishi tabiiy hol, albatta va bu Navoiy, Bobur kabi ulkan ijodkorlarning
yuksaklikka erishishi, mangulikka dahldor bo’lishini ta’minlagan manba bo’ldi. Bobur
hazratlarining quyidagi “Bu kecha kulbamg’a keldi ul quyoshim yoshurun“ deb boshlanuvchi
g’azalining 5-baytidan tahlil etish orqali fikrlarimizni isbotlashga harakat qilamiz:

Olg’ali jonini hijrong’ a havola qildi yor,

Qo’yma hijrong’ a, ajal, jonimni ol, Tengri uchun!

Ya’ni yor hajrida shunchalar betoqat bo’lgan, ma’shuqa ruxsoriga yetisha olmayotgan oshiq
ajaldan “Tengri uchun” jonini olib qo’ya qolishini yorbormoqda. Bu yerda ilohiy ishq
tarannum etilganini yoddan chiqarmagan holda oshiqning yorga bo’lgan cheksiz mehr-
muhabbati jondan ham aziz va muhimroq ekanini his qilamiz.

6- baytda mahbubaning qaddi-yu husni yangi tashbehtar bilan maqtalgach, g’azalning
kulminatsion nuqtasiga, maqtaga, yetib kelamiz:

Ishq ila devonalig’da bo’lmisham sohib kamol,

Ishq ahli, emdi Boburni degaysiz zufunun.

Lirik qahramon ishq bilan devonalikda komillikka erishganini butun ishq ahliga ta'kidlab o'tadi-da endi u zufunun, ya'ni donishmand, barcha ilmning egasi, xususan, ishq ilmining yetuk sohibi bo'lganligidan iftixor etib, mammun bo'ladi. Bu baytda fatiy obrazi Haq taoloninig ishqni bilan band bo'lgan oshiq sifatida gavdalanadi. Yaratgan jamoliga yetish ko'yida dilni pok, hokisor tutgan va ishq ahlining peshvosiga aylangan, kamolotga yetgan fatiy obrazi aslida Bobur hazratlari siyratini namoyon etadi.

O'qilishida o'ziga xos musiqiy ohangi, turfa she'riy san'atlar jilosini bilan ajralib turuvchi "Qaddu xatting birla ko'zu yuzung, ey sarvu siymin tan" deb boshlanuvchi g'azalida lirik qahramon o'zida fatiy obraziga xos safo fazilatini yaqqol namoyon etadi. Safo ginasiz, hasadsiz, g'arazsiz kishilarning ko'ngliga in quruvchi qush misoli va bu qush ushbu she'rdagi fatiyning, lirik qahramonning, dilini nurafshon etguvchi ziyoga aylanadi. Ayniqsa, g'azal maqtasidagi "Otim Majnun, kishim mehnat, ishim zori, yerim gulxan" misrasini o'qigan she'rxon misra sehridan shoshib qoladi va tamomila lol bo'ladi. Yorning vasfi eng yuqori pardalarda kuylangan ushbu g'azaldagi oshiq qalbi shunchalar kamtar, shukronalikka yo'g'rilgan va "madhush miskin"ki, unga bu dunyoning ziynati also kerak emas. Bunday fatiy obrazining yagona maslagi yorning, go'zal hilqat sohibining, mehridan umidvorlikdir va bu umidvorlik unga Yaratgan vasliga yetishmoq yo'lida barcha yaratiqlarga cheksiz mehr-muhabbat ulashishga undovchi kuchga aylangan:

...Meni madhush miskin, naylay, ul sho'xi balo birla,

Men asr-u bedil-u behud, ul asr-u purdil-u purfan.

...Baloi ishqu yolg'uzluq dag'i hijron-u g'urbatda

Otim Majnun kishim mehnat, ishim zori, yerim gulxan.

Bobur ijodida Navoiy an'analarining munosib davom etilishiga ko'p bora guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, futuvvat g'oyasining asoslari bo'lmish saxovat, safo, vafo tushunchalari ko'ngilni faqat yor uchun (Olloh uchun) band etib, barcha noxush hislardan tozalanish, buyuk mehr-muhabbat yo'lida tama qilmaslik, o'zini hokisor tutish kabi fazilatlar jamlanmasini ifodalab keladi hamda Z.M.Bobur g'azallaridagi lirik qahramon fitratida yanada yorqin bo'y ko'rsatadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati (references):

1. www.ziyo.uz. com kutubxonasi. Z.M.Bobur devoni.
2. N. Jabborov. Maoniy ahlining sohibqironi.—Toshkent: Adabiyot, 2021.
3. quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.-Akademnashr, 2010.